



## L. Z. BUDAGOV LUG‘ATIDA ESKI O‘ZBEKCHA SO‘ZLARNING SINONIMLAR YORDAMIDA IZOHLANISHI

**Mahliyoxon Tuxtasinova Shavkatjon qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch  
doktorant*

**Annotatsiya:** *Maqolada sinonimlar bo‘yicha ma‘lumotlar, eski o‘zbek tili (chig‘atoy)ga oid leksemalar sinonimlar yordamida izohlanishi keltirilgan. Bundan tashqari har bir tahlil etilayotgan leksema yasalmalari aks ettirilgan hamda tahlillar illyustrativ materiallar bilan boyitilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sinonimlar, leksema, eski o‘zbek tili, ag‘darmoq, nasim, aytirmaq, misqil.*

Leksemalarni diaxron jihatdan o‘rganishda tilning rivojlanish bosqichlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun tarixiy jarayonlar so‘z ma‘nolarining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatadi. So‘z ma‘nosi iste‘mol doirasining kengayishi, uning ma‘no ottenkasidagi o‘zgarishlar ham til taraqqiyotida o‘ziga xos mavqeni egallaydi<sup>1</sup>. So‘zlarning yangi ma‘nolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Leksikada har bir leksema ma‘nosining o‘zgarishi, yangi ma‘noda qo‘llanishi, iste‘moldan chiqishi, uning susayishi (passivlashishi) va faollashishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan so‘z ma‘nosini tarixiylik asosida tekshirib aniqlash yangi so‘zlarning yuzaga kelish qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir<sup>2</sup>. So‘z tarixan jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Yangi leksemaning ma‘no nozikliklari tilda, xalq jonli so‘zlashuv tilida mustahkam o‘rin egallaydi. Har bir leksik birlik o‘rni bilan bir-biriga yaqin yoki alohida-alohida tushunchalarni anglatishi mumkin. So‘z ma‘nolari va ma‘no nozikliklari bosh va ko‘chma ma‘nolar kabi alohidalikka egaligi bilan ajralib turadi. So‘z ma‘nolaridan biri individual tarzda, boshqa holatlari esa kishilar tomonidan ko‘chma ma‘no hosil qilish jihatlariga ko‘ra ajratiladi<sup>3</sup>.

Aslida so‘z ma‘nosining kengayish, rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish so‘zlarning omonimik, sinonimik, paronimik, antonimik va ko‘pma‘nolilik xususiyatlarini aniqlash, tilning lug‘at boyligini kuzatish, turli lug‘atlar tuzishga katta yordam beradi<sup>4</sup>. Sinonimlar talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma‘nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma‘no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy ma‘no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qatorlarni tashkil etadi.

<sup>1</sup>Абдушукуров Б. “Қиссаси Рабғузий” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 118.

<sup>2</sup> Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 167.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Русский язык. – М. –Л. 1947, –С.21; Фазылова Э.И., Зияевой М.Т. Изысканный дар тюркскому языку. – Ташкент: Фан, 1978,

<sup>4</sup> Фаттоҳов Х.Х. Навоий асарлари бўйича тузилган луғатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1973. – № 4. –Б.79-81; Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.



Sinonimik qatorlar ikki yoki undan ortiq leksemalardan iborat bo'lishi mumkin<sup>5</sup>. Bir so'z bilan aytganda, sinonim so'zlar aniq semantik aloqa asosida bog'langan lug'aviy birliklarning aniq tizimidir<sup>6</sup>.

Til birliklarining, jumladan, leksemalarning sinonimligi deganda, odatda, ularning bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noli bo'lishi nazarda tutiladi. Lekin bir xil ma'noga egalik bilan ma'noga ko'ra bir-biriga yaqinlik o'zaro farqli hodisalardir. Shu bois, ayni bir hodisaga, xususan, sinonimiyaga nisbatan "bir xil ma'noli", "bir-biriga yaqin ma'noli" birikmasini befarq qo'llab bo'lmaydi. Chunki bu hodisaning mohiyatini aniq belgilash, tasavvur qilishga xalaqit beradi. Binobarin, ulardan birini tanlash, hodisaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydiganini belgilash va shunisini qo'llash kerak bo'ladi<sup>7</sup>. Sinonimlar ayni bir til vakilida ayni bir davrda qo'llanadigan bir turkum doirasidagi so'zlardan tashkil topadi. Ular chet tilidan, shevalardan adabiy tilga so'z o'zlashtirish hisobiga boyiydi<sup>8</sup>.

Turkologiya va o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda sinonimlarga bag'ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirildi, o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati chop qilindi<sup>9</sup>. Xususan, H. Dadaboyev qadimgi turkiy tildagi sinonimlar xususida ilmiy izlanishlar olib borgan<sup>10</sup>.

Lug'at tuzilar ekan, unda so'zlarning berilish usullari turlicha bo'ladi, bu muallifning maqsadiga hamda lug'at xususiyatiga bog'liq. Lazar Budagov lug'atida leksemalarni izohlashda lug'at maqola tarkibida sinonimlardan foydalangan holda izohini keltirish o'rinlari talaygina. Sinonimlar borasida so'z ketar ekan, sinonimlar shaklan boshqa bo'lsa-da, ma'no jihatdan ayni bir tushuncha yoki tasavvurni ifodalab, birlashtiruvchi bir ma'noni bildiradi<sup>11</sup>. A. Hojiyevning ta'kidlashicha, turkcha sinonimik qatordagi har bir so'zga qarata aytilgan fikr-mulohaza shu so'zni qo'llashda

<sup>5</sup> Ҳоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. –Б. 3.

<sup>6</sup> Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –Б. 3.

<sup>7</sup> Ҳоҗиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.: Фан, 2010. –Б.124.

<sup>8</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Mumtoz So'z, 2010. –Б. 214.

<sup>9</sup> Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 47; Ҳоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Ҳоҗиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент: О'қитувчи, 2007; Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998; Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984; Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010; Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. фан. док. ... дис. – Тошкент, 1999; Закирова Г. Синонимы в языке тюрко-татарских письменных памятников периода Золотой Орды. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007; Абукарова Д. Синонимия азербайджанского, лезгинского и английского языков. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2006; Курбанова З. Лексические синонимы лакского языка в сопоставлении с русским и английским. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2015; Исаева А. Синонимические синтаксические конструкции в кумыкском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2005; Шумилова А. Синонимия как ментально-языковая категория. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово, 2019; Васильева Н. Лексические синонимы в языке саха. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Якутск, 1993.

<sup>10</sup> Дадабоев Ҳ. "Девону луғотит турк"даги синонимлар хусусида. Лингвист II.–Т.:Akademnashr, 2011.–Б.4-10.

<sup>11</sup> Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.



amal qilinadigan qat'iy hukm deb emas, balki tavsiyalar, deb qaralishi lozim<sup>12</sup>. Chunki sinonimik qatorni tashkil etuvchi leksemalar bir-biridan ma'no nozikligi jihatidan farqlidir. Lug'at rarkibida mavjud chig'atoycha leksemalar izohlashda sinonimlardan foydalanilgan. Ma'lum tildagi sinonimlarni o'rganish, o'sha millat tilining lug'at tarkibi qanchalik boy, qanchalik rang-barang ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Izohlashning yana bir usuli sifatida so'zni sinonimlar vositasida izohlash namoyon bo'ladi. "Turk-tatar tillarining qiyosiy lug'ati"da ham sinonimlar juda ko'p o'rinlarda qo'llanilgan.

L. Z. Budagov yig'ilgan so'zlarning tarjimasidan tashqari V. Daldagi kabi sinonimlardan foydalangan holda ularni izohlash unsurlaridan keng foydalangan. So'zlarni izohlashda L. Budagov "Wörter und Sachen" metodikasidan foydalangan: u so'zlarni ular anglatgan predmetlar yoki tushunchalar haqida ma'lumot berish orqali izohlagan. Shu orqali lug'at turkiy xalqlarning eski turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqidagi ensiklopediyaga aylanib bordi<sup>13</sup>. Lug'atdagi sinonim so'zlar haqida to'xtalar ekanmiz, bir masalani inobatga olish darkor, ya'ni bir so'zning turli tildagi tarjimasi (lug'ati) bir-biri bilan sinonim bo'la olmaydi. Masalan, *اَيْرِكَه* (e) *اَيْرِكَا* *erka* chig'atoycha (нежный, дасковый, приятный, кокетство - muloyim, erka, yoqimtoy) leksemaning кир. рometasi orqali qayd etiluvchi qirg'izcha tarjimasi (баловень (матушкин сынок)) o'zaro sinonimlikni hosil eta olmaydi. Ko'p tilli lug'atlarda sinonimlik yuzaga chiqishi lug'at maqola tarkibida bir til tarjimasi (izohi)da sinonimik qator mavjud bo'lgandagina sodir bo'ladi. Masalan, *ايسْمَكْ* fe'lidan hosil bo'lgan *ايسْرُ* *i:sar* leksemasi lug'at maqolada "tonggi shabboda, nasim" tarzida qayd etilgan. Lug'at maqoladagi *tonggi shabboda* va *nasim* leksemalari o'zaro sinonim bo'la oladi.

"Ohista harakat bilan, asta, oshiqmasdan, shoshilmasdan; bilinar-bilinmas, sezilar-sezilmas; ehtiyotkorlik bilan, asta-asta, ozor bermay, avaylab; vazminlik bilan, hovliqmasdan, ohista; past tovush bilan, eshitar-eshitilmas; oz-ozdan, astalik bilan, kamdan kam" (O'TIL, III, 474) semalarini o'zida aks ettiruvchi leksemalardan biri chig'atoychada *اقرين* ، *اقرين* ، *اقرين* ، *اقرين* *akrin, aqiriyn, aqirun, aqirin* (BD, I, ) dir. Leksema lug'at maqolasida leksemaning bugungi kundagi "sekin, asta" ma'nosiga teng kelishi qayd etilgan. Leksema izohi "sekin, asta" sinonimlaridan foydalanga holatda yoritilgan; bu sinonimik qatorni *sekin, asta, ohista, sust* tarzida davom ettirish mumkin. "Normal darajadan past tezlikda, tezning aksi. Asta so'zida tezlik darajasi sekin so'zidagiga nisbatan sal pastroq bo'ladi. Sust "sekin" ma'nosini kuchliroq darajada ifodalaydi, salbiy ottenkada qo'llanadi" (O'TSIL, 175). Muallif tahlil etilayotgan leksema qo'llanish jihatidan nutq vaziyatiga ko'ra salbiy va ijobiy ottenkani ifodalay olishini sinonimlar vositasida aks ettirgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "tikka holatdan yotqizmoq, yiqitmoq" ma'nosini (O'TIL, I, 129) ifodalovchi *ag'darmoq* leksemasi lug'atda chig'atoycha *اَنگَرْمَق*

<sup>12</sup> Хожиев А. Ўзбек тили синонимларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 6.

<sup>13</sup> Дмитриев Н. К. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий Л. Будагова / Публ., комм. и примеч. Благовой Г. Ф. // Н. К. Дмитриев: К 100-летию. М., 2001. С. 132.





*antirmaq* leksemasi lugʻat maqolasida *yiqtimoq*, *agʻnatib tashlamoq* leksemalari bilan maʼnodoshlikni hosil qilgan holda leksema izohiga oydinlik kiritishda qoʻllangan. Leksemaning *agʻdarmoq* semasi OʻTELda ayni maʼnoda “tik holatdan koʻndalang holatga oʻtkaz-” maʼnosiga egaligi aks etgan leksema qadimgi turkiy tildagi “bir tomonga egil-” maʼnosini anglatgan a:gʻ feʼlining agʻ shakliga –dar orttirma nisbat qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan (ESTYA, I, 74). Maʼlumki, keyinchalik a unililari ä unililariga almashgan: *agʻ-* + *dar*= *agʻdar-* > *ägʻdär-*. Bu soʻz tarkibidagi *agʻ-* feʼlining qatnashgani (a unlisining ä unlisiga almashmagani) uning qadimgi turkiy tildagi shaklda saqlanganini koʻrsatadi (chunki oʻzbek tilida *agʻ-* feʼli *ägʻ-* shakliga oʻtgan) (OʻTEL, 36), OʻTILda yuqorida keltirilgan maʼnoga qoʻshimcha ravishda yana 6 maʼnoda qoʻllanilishi qayd etilgan leksema eski oʻzbek adabiy tilida *agʻnatmoq-dumalatmoq* maʼnosida (ANATIL, I, 168) qoʻllanilganligini ANATILda “Xazoyinul-maoniy”dan berilgan bayt orqali asoslangan:

Xoro tubiga yotqung yoʻq sud agar yuz yil

Koʻk atlas ustida jismingni yotib agʻnat. (IIa-48)

Tahlil etilayotgan chigʻatoycha leksemaning maʼnolari oʻzaro sinonimligini *agʻdarmoq* leksemasining izohida ham koʻrish mumkin, shunday boʻlsa-da, *yiqtimoq* leksemasining izohiga bir nazar solish oʻrinli deb oʻylaymiz. “Kuch bilan qulatmoq, *agʻdarmoq*, *agʻnatmoq*, *buzmoq*” semalari *yiqtimoq* leksemasida aks etishi hamda 5 xil maʼnoga egaligi OʻTIL (II, 271)da qayd etilgan. Tahlillardan koʻrinadiki, leksemalarning izohida ham takrorlanayotgan maʼnolar leksemalarning oʻzaro sinonimligini, L. Budagov chigʻatoycha *أَنْكُرْمَقْ antirmaq* leksemasi izohini sinonimlardan foydalangan holda keltirganini asoslaydi.

“Yuz, koʻz harakatlari yoki turlicha tovush (tovushlar) bilan xursandligini, zavq-shavqini ifodalamoq, kulgi ifodalamoq” (OʻTIL, II, 426) maʼnolarini ifodalovchi *kulmoq* leksemasi BD lugʻatida chigʻatoy leksikoniga oid *مِسْقَرْمَقْ misqarmoq* leksema lugʻat maqolasida “kulimsiramoq, tabassum qilmoq” (OʻTIL, II, 86) maʼnolarini ifoda etuvchi *jilmaymoq* leksemasi bilan birga sinonimlikni voqelantirgan. *Jilmay* “kulimsiramoq” feʼli qadimgi turkiy tildagi “siljimoq” maʼnosini anglatuvchi *yilmoq* feʼlidan (ESYTA, IV, 41) –(i)m qoʻshimchasi bilan yasalgan; keyinchalik bu soʻz boshlanishidagi y undoshi j undoshiga almashgan, -(a)y qoʻshimchasi qoʻshilganidan keyin ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan (KRS, 281); oʻzbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan, i unlisining qattiqlik belgisi yoʻqolgan va (*yil-* + *im* = *yilim*) +*ay* = *yilimay-* > *jilimay-* > *jilmäy-* holatiga kelgan (OʻTEL, 102). *Kulmoq* leksemasi qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu feʼl asli koʻl- tarzida talaffuz qilingan (PDP, 397; DS, 325; ESTYA, III, 99); oʻzbek tilida oʻ unlisining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan va *koʻl-* > *kul-* > *kulmoq* (OʻTEL, 215) tarzida qoʻllana boshlangan; hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham ayni shaklda qoʻllanilmoqda.

Tahlil etilayotgan leksema BD lugʻatida ijobiy ottenka ifodalash bilan birga salbiy boʻyoqdorlikni yuzaga keltirish uchun ham qoʻllanilganligi qayd etilgan. “Kulmoq, *jilmaymoq*” maʼnosini oʻzida aks ettiruvchi *مِسْقَرْمَقْ misqarmoq* leksemasining *مِسْقِيلْ misqil* varianti “masxara” semasiga ega boʻlgan har ikki soʻz ham arabcha *مِسْخَرَه*



*masxara* soʻzining buzilgani buzilgani boʻlib, turkiy xalqlarda مسقره *masqara* sifatida talaffuz qilinadi. Leksema مسقلچى “*masxara qiluvchi*”, مسقللامق ، مسقللامق *masqalalamoq* “*masxaralamoq*”, “*taqlid qilmoq*”, يولداشين مسقلاب *yoldoshin masqalab* “*doʻsti (sherigi)ning ustidan kulmoq*” kabi maʼnolarni salbiy ottenkani ifoda etishda ham qoʻllangan.

Eski oʻzbek adabiy tili davrida xoqon leksemasi, hosil qilingan birikmalarning qoʻllanish holatlarini Alisher Navoiyning asariga murojaat etish asnosida oʻrganish mumkin. “Shoh, xonlar xoni” maʼnosini ifoda etuvchi *xoqon* leksemasi “Saddi Iskandariy” asarida keladi:

Sangakim oting keldi xoqoni Chin, Yoʻq ersa sipohdori Turon zamin (267b14);

Olam elida xisravu xoqon laqabing, Odamgʻa degincha xon bin xon nasabing. (“*Munshaot*” XIII-117)

“Hayratul-abror” asarida *xoqoni ahd* izofasi “zamon, davr xoqoni” semasini voqelantirgan: Kimki erur qaysaru xoqoni ahd, Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd. (120-18)

“Saddi Iskandariy” (288b19) asarida *xoqoni daryonazir* “eng ulkan shoh” maʼnosini ifoda etishi aks etgan:

Duo birla xoqoni daryonazir

Dedi: K-ey jahondori daryozamir (ANATIL, III, 422).

Tahlilga tortilgan xoqon leksemasining “xonlar xoni, xoqon” semasi bilan bir qatorda “oliy bosh qoʻmondon” maʼnosini ifoda etishi H. Dadaboyev lugʻatida qayd etilgan hamda “Saddi Iskandariy” (267b14)da ayni maʼno aks etgan parcha keltirilgan:

Sangakim oting keldi xoqoni Chin,

Yuq ersa sipohdori Turonzamin (THTL, 238).

Lugʻatnavis leksemalar mazmunini qayd etishda sinonim soʻzlardan foydalanishi nazarda tutilgan mazmunning maʼno nozikligi (qirralari)ni ifodalashda muhim rol oʻynaydi. Muallif tomonidan leksema izohlanayotganda bunday sinonimlardan foydalanishi leksema mazmunini aniqroq izohlashga koʻmaklashadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
2. Абдушукуров Б. “Қиссаси Рабғузий” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 118.
3. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”даги синонимлар хусусида. Лингвист II.–Т.:Akademnashr, 2011.–Б.4-10.
4. Дмитриев Н. К. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий Л. Будагова / Публ., комм. и примеч. Благовой Г. Ф. // Н. К. Дмитриев: К 100-летию. М., 2001. С. 132.
5. Фаттоҳов Х.Х. Навоий асарлари бўйича тузилган луғатлар // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1973. – № 4. –Б.79-81; Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.



6. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашишининг назарий масалалари. –Т.: Фан, 2010.
7. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974.
8. Миртожиёв М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Mumtoz so‘z, 2010.
9. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 167.
10. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.
11. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
12. Виноградов В.В. Русский язык. – М. –Л. 1947, –С.21; Фазылова Э.И., Зияевой М.Т. Изысканный дар тюркскому языку. – Ташкент: Фан, 1978.

### **Qisqartmalar:**

**ANATIL** – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. 1983-1985; I-1983, 646 б.; II-1983, 642 б.; III-1984, 622 б.; IV-1985, 636 б.

**BD** – Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II. –СПб 1869-1871.

**ESTYA** – Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М: Наука, 1974. – 767 с.

**THTL** – Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2008. – 239 б.

**О‘TIL** – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. I-2006, – 680 б.; II-2006, – 672 б.; III- 2007, – 688 б.; IV-2008, – 608 б.; V-2008, – 592 б.

**О‘TEL** – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.; Ўзбек тилининг этимологик луғати (арабча бирликлар ва уларнинг ҳосилалари). – Тошкент: Университет, 2003.: Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча-тожикча бирликлар ва уларнинг ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009.

**О‘TSIL** – Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.